

Лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш учун
ШАРТНОМАГА ҚЎШИМЧА КЕЛИШУВ № 4/60261
19.10.2023 йил № 60261-сонли шартнома

ШБ-24

**«Қоровулбозор тумани тиббиёт бирлашмасига қарашли марказий поликлиника биносини
реконструкция қилиш».**

Бухоро шаҳри

«13» 02. 2024 йил

Вилоят ҳокимлиги ҳузуридаги Ягона буюртмачи хизмати инжиниринг компанияси ДУК кейинги уринларда «Буюртмачи» деб аталиб ҳамда Низомга асосан ДУК директори А.Тўхтамишов бир томондан ва «QURILISHLOYIHA» МСНЖ кейинги ўринларда «Иш бажарувчи» деб аталиб ҳамда Низом асосида иш юритувчи номидан раҳбар Б.Н.Тошев иккинчи томондан, қуйидагилар тўғрисида мазкур келишувни туздилар:

Мазкур келишувни тузишдан мақсад - Бухоро вилояти ҳокимлиги ҳузуридаги Ягона буюртмачи хизмати инжиниринг компанияси ДУК ва «QURILISHLOYIHA» МСНЖ ўртасида: «Қоровулбозор тумани тиббиёт бирлашмасига қарашли марказий поликлиника биносини реконструкция қилиш», объекти бўйича 2023 йил 19 октябрдаги № 60261 - сонли шартноманинг 2-боб, 2.2.-бандига қўшимча ўзгартиришлар киритишди.

1. Шартнома бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ишларининг баҳоси ҚҚС билан – **238 050 000** (Икки юз ўттиз саккиз миллион эллик минг) сўми ташкил этади.

Шундан 2023 йилда тасдиқланган манзилли дастурга асосан ҚҚС билан – 184 415 000 (Бир юз саксон тўрт миллион тўрт юз ўн беш минг) сўм маблағ тўлаб берилган.

2. Тасдиқланган манзилли дастурга асосан 2024 йилда ажратилган маблағ ҚҚС билан – **53 635 000** (Эллик уч миллион олти юз ўттиз беш минг) сўми ташкил этади.

3. Ушбу шартноманинг мазкур қўшимча келишув билан ўзгартирилмаган барча бандлари ўз кучида қолади ва томонлар уларни бажаришга мажбурдир.

4. Қўшимча келишувда томонларнинг розилиги билан қўшимча ва ўзгартиришлар киритилиши мумкин.

5. Мазкур қўшимча келишув 19 октябрдаги № 60261 - сонли шартномага илова қилиниб, унинг ажралмас қисми бўлиб ҳисобланади.

6. Томонлар қўшимча келишув имзоланган кундан бошлаб кучга киради ва 2024 йил 31 декабргача амал қилади.

«БУЮРТМАЧИ»

«ИШ БАЖАРУВЧИ»

Бухоро вилояти ҳокимлиги ҳузуридаги Ягона буюртмачи хизмати инжиниринг компанияси ДУК

Манзил: Бухоро шаҳри, Навоий шох кўчаси 5-уй
тел. 223-63-23, 223-63-26

Ш/р: 100021860064017096524054041
ИНН 201512962 ОКОНХ 69000 ОКЭД 70100

Бухоро вилоят Ҳазначилик бошқармаси

Х/р: 23402000300100001010

Марказий банк Тошкент шаҳри

МФО 00014 ИНН 201122919

Раҳбар:  А.Тўхтамишов

Ҳуқуқшунос: 

Лицензия ЮК № 006176

Ш.Б.  Р.Хайитов

«QURILISHLOYIHA» МСНЖ

Манзил: Бухоро ш., Навоий шох кўчаси 5 уй
Тел.: +998 91 448 36 87

Х/с 20208000901738610001

Банк номи: «Ипотека банк» АТИБ Сардор ф.
МФО 00119 ИНН: 202 066 053

ОКЭД 71120

Директор:  Б.Н.Тошев

Ҳуқуқшунос: 

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun shartnoma

Andijon viloyati

№26190

2023 yil «10» mart

«TRUST INJINIRING LOYIHA MCHJ», bundan buyon matnda «Bajaruvchi» deb yuritiladi, Nizom asosida faoliyat yurituvchi Bosh direktor XAYDAROV MUZAFFAR MAMATOJIYEVICH nomidan, bir tomondan ANDIJON MINTAQAVIY YO`LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI UK, bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb yuritiladi, Nizom asosida faoliyat yurituvchi MIRZAYEV TUXTASIN MAMASALIYEVICH nomidan, ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur Shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Buyurtmachi ko'rsatma beradi va Bajaruvchi Buloqboshi tuman Qumariq MFY ichki yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyixa-smeta xujjatlari tayyorlash xamda Davlat ekspertiza xulosasini olish. obykti uchun loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi, shu jumladan:

- ishchi loyiha;
- joriy narxlardagi smeta hisobi.

1.2. Loyihalashtirilayotgan obyektning joylashgan joyi Buloqboshi tuman Qumariq MFY ichki yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyixa-smeta xujjatlari tayyorlash xamda Davlat ekspertiza xulosasini olish.

1.3. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun bajaruvchi loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish, shartnoma bo'yicha muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun subloyihachilarni jalb qilish, loyiha hujjatlarining ayrim bo'limlarini ishlab chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarga ega.

1.4. Bajaruvchi ishlarni loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish tartiblari belgilangan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, shaharsozlik normalari va qoidalari va boshqa hujjatlar hamda mazkur shartnoma asosida amalga oshiradi.

1.5. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun asos Buyurtmachi tomonidan Bajaruvchi ishtirokida tayyorlangan va o'rnatilgan tartibda ishchi loyihani ishlab chiqish uchun tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig'i hamda mazkur shartnoma hisoblanadi. Loyihalashtirish topshirig'i mazkur shartnomaning ajralmas qismidir.

1.6. Ishning asosiy bosqichlarining tarkibi, qiymati va muddatlari ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan ilovalari bilan belgilanadi.

1.7. Shartnoma loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishga, loyiha-smeta hujjatlarini tegishli ekspertiza ko'rigidan o'tkazib ijobiy xulosa olishga, mualliflik nazorati olib borish va texnik shartlarni va APZ tayyorlash bilan bog'liq ishlarga tuzilgan.

1.8. Bajaruvchi ishlarni Buyurtmachi tomonidan boshlang'ich ma'lumotlar taqdim etilib, shartnoma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tkazib, avans to'lovini amalga oshirgan kundan boshlab, mazkur shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan kalendar ish grafigi muddatida bajaradi.

1.9. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlari ishlari bo'yicha davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertiza xulosalarini olgandan so'ng 3 (uch) nusxada mazkur loyiha va qidiruv ishlari hujjatlarini Buyurtmachiga taqdim etishi kerak.

1.10. Loyihalashtirish ishining boshlanish sanasi, quyidagi shartlarning barchasi bajarilgan sanadan hisoblanadi:

1.10.1. Bajaruvchining hisob raqamiga bo'nak to'lovi to'lab berilishi;

1.10.2. Loyihalashtirish topshirig'ini va ushbu Shartnomaga tegishli boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlash va kelishish;

1.10.3. "Buyurtmachi" tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig'iga va me'yoriy hujjatlarga muvofiq loyihalash uchun zarur bo'lgan barcha dastlabki ma'lumotlarni taqdim etish.

2. SHARTNOMA BAHOSI VA TO'LOV SHARTLARI

2.1. Shartnomaning bahosi mazkur shartnomaning 1 va 3-ilovasida keltirilgan kelishuv bayonnomasi va loyiha tadqiqot ishlari uchun smeta hisobiga asosan **QQS bilan 3,815,000.00** so'mni tashkil etadi.

2.2. Buyurtmachi shartnomani O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tkazgandan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida shartnoma bahosining 15 foiz miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Bajarilgan ishlar uchun haq to'lash belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomalari (hisob-fakturalar) bo'yicha, ular imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida, bo'nakni (avans) mutanosib ushlab qolgan holda amalga oshiriladi.

2.4. Bajaruvchi tomonidan bajarilgan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan ishlar uchun yakuniy hisob-kitob O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligini buzilishiga yo'l qo'ymaydigan muddatlarda va tartibda amalga oshiriladi.

2.5. Shartnomaning narxi yakuniy hisoblanadi va kelgusida o'zgartirilishi mumkin emas, belgilangan tartibda ish hajmini o'zgartirish hollari bundan mustasno.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchi quyidagilarga majbur:

3.1.1. Loyihalash haqidagi topshiriqqa va boshqa boshlang'ich ma'lumotlarga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini shartnomaning 2-ilovasida belgilangan muddatda Buyurtmachiga topshirish;

3.1.2. Tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini Buyurtmachi bilan hamda tegishli davlat organlari va idoralari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishib olish yoki xulosa olish;

3.1.3. Buyurtmachi, tegishli davlat organlari va idoralari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha asoslangan e'tirozlarini inobatga olib loyiha-smeta hujjatlariga tuzatishlar kiritish;

3.1.4. Ishlarning natijalarini Buyurtmachiga 3 (uch) nusxada va elektron (pdf) ko'rinishda topshirish;

3.1.5. Buyurtmachining rozilgisiz loyiha-smeta hujjatlarini uchinchi shaxslarga bermaslik;

3.1.6. Tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida uchinchi shaxslarda ishlarni bajarishga qarshilik qilish yoki bajarishni cheklash huquqi yo'qligini kafolatlash.

3.2. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

3.2.1. Shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda shartnomani 1.1. bandida nazarda tutilgan ishlarni qabul qilib olish va ishlarni bajaranganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

3.2.2. Loyihalashtirish topshirig'ini taqdim etish;

3.2.3. Amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar (kodekslar, qarorlar, ShNK va boshqalar) talablariga muvofiq ishlarni bajarish (loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash) uchun zarur bo'lgan dastlabki loyihaoldi hujjatlarini (yer ajratish qarorlari, ruxsatnoma, ART-1,2, ZVOS) taqdim etish.

3.2.4. Bajaruvchidan olingan loyiha-smeta hujjatlaridan faqat mazkur shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanish, loyiha-smeta hujjatlarini Bajaruvchining rozilgisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

3.2.5. Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza ko'rigiga taqdim etish.

3.2.6. Tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo yuzasidan ishga qatnashishga Bajaruvchini jalb qilish.

3.3. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar taqdim qilishi shart.

3.4. Bajaruvchi buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan boshlang'ich ma'lumotlarni 5 (besh) ish kuni mobaynida o'rganib chiqishi hamda berilgan ma'lumotlarda kamchiliklar aniqlansa Buyurtmachiga ma'lum qilishni o'z zimmasiga oladi

Agar bajaruvchi buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan boshlang'ich malumotlarda aniqlangan kamchiliklarni, 5 (besh) ish kuni muddat ichida Buyurtmachiga ma'lum qilmasa, ma'lumotlar qabul qilingan deb hisoblanadi va bunday holat bajaruvchi ishlarini bajarish muddatini o'zgartirishga asos bo'la olmaydi.

3.5. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlari kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha smeta hujjatlari va bajarilgan qidiruv ishlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan obyektни ishlatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgar bo'ladi. Loyiha-smeta hujjatlari ishlarida kamchiliklar aniqlansa, bajaruvchi Buyurtmachining birinchi talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqish va shunga muvofiq zarur qo'shimcha qidiruv ishlarini bajarishi

shart.

4. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Loyiha-smeta hujjatlari ishlari bajarilishining alohida bosqichi va shartnoma bo'yicha belgilangan jami ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi asosida topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi va ish natijalarini olgandan so'ng 10 (o'n) kun ichida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuboradi.

Agar buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun muddat ichida bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

Loyiha-smeta hujjatlarining murakkablik darajasiga qarab ishlarni ko'rib chiqish muddatini 30 (o'ttiz) kungacha uzaytirish to'g'risida Bajaruvchini ogohlatiradi.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar loyiha-smeta xujjatlari ishlarini bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, taraflar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun mobaynida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart.

4.5. Lozim topilgan hollarda taraflar mustaqil ekspertlarga loyiha smeta xujjatlari bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi mumkin.

4.6. Loyiha-smeta hujjatlarida shartnomadan chetlanishlar yoki boshqa kamchiliklar borligi aniqlansa, bunday kamchiliklarni smeta hujjatlarini qabul qilayotganda aniqlash imkoniyati bo'lmasa (yashirin kamchiliklar), bunday holatda Buyurtmachi kamchiliklar aniqlangandan keyin Ijrochini 10 kun muddat ichida yozma ravishda ogohlantirish va kamchiliklarni qisqa muddatda bartaraf etilishini talab qilishi kerak.

5. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

5.1. Loyiha-smeta hujjatlari ishlarining bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

6. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma shartlari bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan obyektidan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

6.3. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda pudratchi Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning oqibatida keltirilgan zararni to'lashi shart.

6.4. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarining kamchiliklari uchun, kamchiliklarni aniqlash muddatidan qat'iy nazar, javobgar bo'lmaydi, ushbu Shartnomada ko'rsatilgan hollar bundan mustasno, agar ushbu kamchiliklar quyidagilar bilan bog'liq bo'lsa:

- loyiha-smeta hujjatlari talablaridan chetga chiqish bilan, Bajaruvchi bilan kelishilmagan holda, obyektни qurish va ishlatish jarayonida yoki loyihani tugatishda;

- loyihalashtirish topshirig'ida "Buyurtmachi" tomonidan taqdim etilgan loyihaoldi hujjatlarning o'zgarishi bilan, shuningdek loyihalash tugagandan so'ng kelajakdagi o'zgarishlar bilan;

6.5. Buyurtmachi shartnoma bo'yicha haq to'lanmaganlik (o'z vaqtida to'lanmaganlik) uchun Bajaruvchiga to'lov muddati kechiktirilgan har bir kun uchun o'z vaqtdan to'lanmagan summaning 0,4 foiz miqdorida, biroq to'lanmagan summaning 50 foizidan yuqori bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.6. Bajaruvchi ishlarni o'z vaqtida bajarmaganligi uchun Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,5 foiz miqdorida, biroq o'z vaqtida bajarilmagan ishlar qiymatining 50 foizidan yuqori bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.7. Bajaruvchi loyiha va qidiruv hujjatlari asosida Obyekt qurilishi jarayonida mualliflik nazoratini amalga oshiradi.

6.8. Neustoykaning to'langanligi va zararning qoplanganligi taraflarni o'z majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

6.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

7. FORS-MAJOR VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Agar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarish o'ziga bog'liq bo'lmagan fors-major holatlari (fors-major holatlari) tufayli imkonsiz bo'lib qolganligini isbotlansa, Tomon Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan butunlay ozod qilinadi. Shartnoma bo'yicha tomonlarning harakatlari, lekin shartnoma majburiyatlarini bajarishning iloji yo'qligiga olib keladi.

7.2. Agar biron-bir fors-major holatlari tomonning majburiyatlarini bajarish muddatiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa, u holda bu muddat fors-major hodisasi sodir bo'lgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

7.3. Tomon, fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ular yuzaga kelgan paytdan e'tiboran uch kun ichida boshqa tomonni ushbu holatlarning yuzaga kelishi, kutilayotgan davomiyligi va tugatilishi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

7.4. Mazkur shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

7.5. Muzokaralar olib borish yo'li bilan ziddiyatlarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar da'vogarning tanlovi bo'yicha Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida yoki O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

8. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shichalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilib, taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolanib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tgan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

8.3. Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilishga haqli:

- Bajaruvchining aybi bilan ishlarning borishi ushlanib qolsa va ishlarni tugatishning shartnomada belgilangan muddatidan 30 kun oshiq muddatga kechiktirilsa;

- Bajaruvchining shartnoma shartlarini buzishi oqibatida berilgan topshiriqda nazarda tutilgan ishlar sifati pasaysa.

8.4. Bajaruvchi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilishga haqli:

- Bajaruvchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra loyiha ishlari Buyurtmachi tomonidan 30 kundan oshiq muddatga to'xtatilsa;

- Buyurtmachi loyihalash ishlarining haqini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa.

8.5. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH QOIDALARI

9.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

9.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga vada qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

9.4. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

10. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

10.1. Ish natijalaridan normal foydalanish imkoniyatini bermaydigan kamchiliklar aniqlansa va ularni bartaraf etmasdan turib natijalardan foydalanib bo'lmasa, kamchiliklarni bartaraf etish Bajaruvchi tomonidan va uning hisobdan amalga oshiriladi.

10.2. Kamchiliklarning mavjudligi va ularni bartaraf etish muddatlari Buyurtmachi va Bajaruvchi qo'shma dalolatnomasida qayd etiladi.

10.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkala nusxa xam bir xil yuridik kuchga ega va taraflarga bir nusxadan beriladi.

10.4. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat Tomonlarning o'zaro roziligi bilan amal qiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10.5. Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq hajmda topshirilgandan keyin qo'shimcha ishlar (o'zgartirishlar) loyihalash tashkiloti tomonidan asosiy shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

10.6. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

10.7. Barcha nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal etiladi.

10.8. Fors-major holatlari yuzaga kelganda, Tomonlar o'z harakatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladilar.

10.9. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi va 31.12.2023 gacha amal qiladi.

11. ILOVALAR

11.1. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1- Ilova - Shartnoma narxi bo'yicha kelishuv bayonnomasi;

2- Ilova - Kalendar ish grafigi;

12. TARAFLARNING REKVIZITLARI

BUYURTMACHI

ANDIJON MINTAQAVIY YO`LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI UK

**Yuridik manzili: Andijon shahri
Aylanma xalqa kochasi 5-uy**

Manzil: Andijon shahri Aylanma xalqa
kochasi 5-uy

Tel: 998914981011

Sh/x: 301821860030007045204118169

STIR: 304917491

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi G'aznachiligining
Amaliyot boshqarmasi

h/r: 23402000300100001010

STIR: 201122919

MFO: 00014

**Direktor: Mirzayev Tuxtasin
Mamasaliyevich**



BAJARUVCHI

TRUST INJINIRING LOYIHA MCHJ

**Yuridik manzili: Andijon viloyati,
Xo'jaobod tumani: Guliston MFY,
Qadriyat ko`chasi, 265-uy**

Manzil: Andijon viloyati, Xo'jaobod
tumani: Guliston MFY, Qadriyat
ko`chasi, 265-uy

Tel: 998909405140

Hamkorbank ATB bosh ofisi

170111, Andijon viloyati, Andijon sh.,
Boburshoh ko'chasi, 85 uy

h/r: 20208000105210324001

MFO: 00083

STIR: 307317453

OKED: 71120

**Direktor: XAYDAROV MUZAFFAR
MAMATOJIYEVICH**



2023 yil «10» mart dagi
26190-sonli shartnomaga **1-sonli ilova**

Loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun shartnoma narxi bo'yicha kelishuv

B A Y O N N O M A S I

Biz, kuyida imzo qo'yuvchilar, "Buyurtmachi" tomonidan ANDIJON MINTAQAVIY YO`LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI UK Ustav asosida ish yurituvchi MIRZAYEV TUXTASIN MAMASALIYEVICH "Bajaruvchi" tomonidan TRUST INJINIRING LOYIHA MCHJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi XAYDAROV MUZAFFAR MAMATOJIYEVICH shartnomada loyihalash obyekti Buloqboshi tuman Qumariq MFY ichki yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyixa-smeta xujjatlari tayyorlash xamda Davlat ekspertiza xulosasini olish. 2023 yil «10» mart dagi 26190 sonli shartnoma bahosi **12% QQS bilan** 3,815,000.00 so'mni tashkil qiladi.

Ushbu bayonnoma Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtasida o'zaro xisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos xisoblanadi.

BAJARUVCHI

TRUST INJINIRING LOYIHA MCHJ



BUYURTMACHI

**ANDIJON MINTAQAVIY YO`LLARGA
BUYURTMACHI XIZMATI UK**



2023 yil «10» mart dagi
26190-sonli shartnomaga **2-sonli ilova**

Obyektni nomlanishi: Buloqboshi tuman Qumariq MFY ichki yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyixa-smeta xujjatlari tayyorlash xamda Davlat ekspertiza xulosasini olish.

**Loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun
KALENDAR ISH JADVALI**

№ t/r	Ishning nomlanishi	Ishning muddati (boshlanishi va yakullanishi)	Ishning narx qiymati so'm
1.	Atrof muhitga ta'sir bayoni (ZVOS), APZ tayyorlash, Loyiha-smeta ishlari, Ekspertiza xarajatlari, Mualliflik nazorati	Boshlanishi: 2023-03-09 Yakunlanishi: 2023-03-20	3,815,000.00 2023-03-22
	12% QQS		408,750.00
	Jami QQS bilan:		3,815,000.00

BAJARUVCHI

TRUST INJINIRING LOYIHA MCHJ

**Direktor: XAYDAROV MUZAFFAR
MAMATOJIYEVICH**



BUYURTMACHI

**ANDIJON MINTAQAVIY YO`LLARGA
BUYURTMACHI XIZMATI UK**

**Direktor: Mirzayev Tuxtasin
Mamasaliyevich**

